

## O‘QUVCHILARNI BARKAMOL SHAXS ETIB TARBIYALASHDA OTA–ONALAR BILAN ISHLASH MEXANIZMLARI

**Xolmirzayeva Shaxnoza Raximberdiyevna**

University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi magistranti

E-mail: [umud667766778899@gmail.com](mailto:umud667766778899@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘quvchilarni barkamol shaxs e’tib tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash mexanizmlari va unda amalga oshiriladigan ishlar borasida fikr yuritilgan. Maqolada eng avvalo o‘quvchilarni jismoniy, ruhiy, estetik, axloqan etuk shaxs e’tib tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash muhimligi nazarda tutilgan.

**Kalit so‘zlar:** oilada ota-onalarning vazifasi, hamkorlik, barkamol shaxs, tarbiyada ota -onalar, sog‘lomlashuv, miliy hayot tarzi, milliy fikrlash, shakillantirish, tarbiyalash, xulq, xatti-xarakat, muhit, munosabat, ‘rivojlantirish, holat, umuminsoniy qadriyatlar.

## MECHANISMS OF WORKING WITH PARENTS IN RAISING STUDENTS AW WELL –ROUNDED INDIVIDUALS

**Kholmirezayeva Shakhnoza Rakhimberdiyevna**

1st-year master’s student of the University of Business and Science, a non-state higher educational institution, majoring in pedagogy and psychology.

E-mail: [umud667766778899@gmail.com](mailto:umud667766778899@gmail.com)

### ABSTRACT

This article discusses the mechanisms of working with parents in raising students to become well-rounded individuals and the work to be done in it

**Keywords:** the role of parents in the family, cooperation, interest of parents in raising students’ to become a well-rounded person, health, national way of life, national thinking, education, behavior, behavior environment, attitude, development, situation universal values.

### KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish sharoitida inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Barkamol inson haqida uning mexnati va turmushi ma’naviy taraqqiyoti haqida g‘amho‘rlik jamiyatimizning

asosiy maqsadidir. Kishi hislatlari uning mehnatga ma'naviy g'oyaviy va madaniy boylklarga munosabatining asoslari oilada shakllanadi. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hamdur. Farzand tarbiyasi juda ulug' va shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biridir. Farzandini barkamol avlod komil inson qilib tarbiyalash xamma jamiyatlarda va hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Yurtimiz kelajagi qanday bo'lishi yoshlarimizni har tomonlama bilimli, salohiyati va ma'nan yetuk bo'lib tarbiylanishlariga bog'liq. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev aytganidek, yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni, taraqqiyotining intellektual qadriyatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga yetkazadilar. Yoshlar bunday mas'uliyatli vazifani bajarish uchun ularning erkin rivojlanishi, barkamol shaxs e'tib tarbiyalashda ijodiy bunyodkorligiga bizlar keng imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berishimiz kerak deb har bir ma'ruzalari va asarlarida ta'kidlab o'tmoqdalar. Xaqiqatan ham hozirgi kunda O'zbekistonda shunday muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'quvchilarni barkamol shaxs e'tib tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash mehanizmlarini rivojlantirishda dunyodagi yetakchi olimlar o'z izlanishlarini olib borishgan. Ushbu izlanishlar asosan ta'lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'zbek olimlaridan A.Q Munavvarov, R.A.Mavlonova, B.Normurodova, X.Uzoqov, E.G'oziev, A.Tojiev, O'.M Asqarova, M. Xayitboyevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, xorij olimi Y.A.Kameniskiy.K, Ushinskiy Gerbart kabi ko'blab olimlar izlanishlar olib borganlar.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Maqolada o'quvchilarni barkamol shaxs e'tib tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash mehanizmlarini qiziqishlari rivojlantirishda muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. O'zbekistonda o'quvchilarni

O'quvchilarni barkamol shaxs e'tib tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash mehanizmlarini rivojlantirish mezonlari tahlili qilindi va mezonlar bilan solishtirildi. O'quvchilarni barkamol shaxs e'tib tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yondashuvlar o'rganildi.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR.**

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga doir davlat siyosatining asoslari haqidagi qonunda yoshlarning hozirgi demokratik va bozor islohatlari sharoitiga mos keluvchi ijtimoiy psixologiyasini rivojlantirish, yoshlarda ijtimoiy o'zgarishlarga va o'z - o'zini kamol toptirishga, faol ijodiy va ijobiy munosabatni vujudga keltirish, ba'zi yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy loqaydlik va boqimandalik ruhiyatidan qutilishlariga yordamlar berib borish nazarda tutilgan.

Oilada doimo tinchlik bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli, faol tashkil etish, madaniyat, san'at maskanlariga maktabdan tashqari oilaviy sayohatlar uyushtirish oila barkamolligini ta'minlashga katta xizmat qiladi. Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlilikdir.

Xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni "Vatan ichra vatandir" deya ulug'lab kelgan. Unda ulg'aygan har bir farzand, avvalo o'z oilasi aksini, ular birlashib esa mamlakat qiyofasini butun dunyoga tanitadi. O'zbekistonda ro'y berayotgan bunday o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi barkamol shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi .

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatimizda vujudga kelgan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy muhitni sog'lomlashuvi, miliy hayot tarzi, milliy fikrlash tarzining tiklanishi hozirning o'zida yoshlar hayotining turli sohalarida ijtimoiy maqsad va niyatlarini, ijtimoiy sabablarini o'zgartirishgasamarali ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilardan boshlab ma'naviy qadriyatlar va ma'naviyatning ma'naviy madaniyatini shakllantirish kelajak avlodimizning barkamol voyaga yetishiga yaqindan yordam beradi. Har bir pedagogik muammoning o'z andozasi bo'lib u shu muommoni samarali hal etishning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin u yoki bu andozani tarbiya jarayonining yagona, o'zgarmas asosi sifatida qabul qilish mumkin emas.

Shunday qilib o'quvchilarni ma'naviy madaniyati, ularning ongi, faoliyati, xulq-atvori, bilim saviyasi, e'tiqodi-tarixiy tajribalarga, an'analarga munosabati yig'indisida tarkib topadi va egallangan bilim, malaka, ko'nikmalarni kundalik turmush faoliyatida mustaqil, ijodiy qo'llay bilish mahoratida o'zining jamiyat, maktab, oila, mahalla, do'stlari oldidagi burch va vazifalarini bajarishlarida nomoyon bo'ladi. Kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarimizning ma'naviyatli va madaniyatli bo'lishida biz ustozlar, ota-onalar, katta yoshdagi insonlar, muhim pedagogik talabi hisoblanadi. Albatta bu o'rinda o'quvchining irodasi, e'tiqodi, imkoniyati, savodxonligi va ijodiy faoliyat darajasi ham uning bilimi, ma'naviy shakllanishiga u yoki bu darajada ijobiy ta'sir etadi. Shunday qilib o'quvchilarni bilimi va ma'naviy madaniyati, ularning ongi, faoliyati, xulq-atvori, estetik saviyasi, e'tiqodi-tarixiy tajribalarga, milliy an'analarga munosabati yig'indisida shakllanadi va egallangan bilim, malaka, ko'nikmalarni kundalik turmush faoliyatida mustaqil, qattiyat va ijodiy qo'llay bilish mahoratida o'zining jamiyat, maktab, oila, vatan, mahalla, do'stlari oldidagi burch va vazifalarini bajarishlarida nomoyon bo'ladi. Kelajagimiz davomchilari bo'lgan o'quvchi-yoshlarimizning ma'naviyatli, madaniyatli, bilimli va estetik jihatdan tarbilangan bo'lishida biz ustoz-murabbiylar, ota-onalar, bobo va buvilar, katta yoshdagi insonlar,

ma'suliyatlilikni, e'tiborni, milliylikni, andozalilikni ijobiy yo'lga qo'ysakgina biz kutgan natijaga erishishimiz mumkin.

Oilada quyidagi bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yuqori bo'ladi:

- yosh ota-onalarga farzand tarbiyasi haqida tushunchalar berish.

- kichik yoshdagi (6-11 yosh) o'quvchining ilk iqtidori, qiziqishi aqliy imkoniyatlarini aniqlash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof muhitga munosabati, vatanparvarlik hislatlarini shakillantirib borish.

- o'smir yoshdagi (11-16 yosh) o'quvchilarning qiziqishini bilimga chanqoqligini aql zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, qiziqishlari orqali turli kasb-hunarlariga yo'naltirish.

- (16-yosh va undan yuqori) o'quvchilarni bilim olishlari, kasb tanlashlari mustaqil hayotga tayyorlash, ularni imkoniyatlari darajasida ta'lim olishga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlashlariga shart - sharoit yaratish.

Ta'lim - tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan xujjat va qonunlarni samarali bajarish uchun maktab oila hamkorligini o'ziga hos pedagogik tizim, uslub va shakillarga ega bo'lishi zarur. Kishiga bir umr hamroh bo'ladigan insoniy fazilatlar- ezgulik, yahshilik, yaratuvchanlik, sadoqat, insof, rahm - shavqat kabi hislatlar dastlab oilada shakllanadi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib voyaga yetishlarida alohida zamin tayyorlaydi. Oilaviy tarbiya, ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining turmush tarzi ko'p xollarda farzandning ruhiy kayfiyati, ta'savvuri va hissiyotlarini belgilab beradi. Demak oila sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda jamiyat oldida ma'suldur. Tajriba faoliyatidan kelib chiqib shunga amin bo'ldikki, o'quvchini ta'lim olishi, bilimi yaxshi bo'lishi ko'p hollarda oilasiga borib taqaladi. Sabablarni o'rganilganda, oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlar, ota-onasi yoki aka-uka, singillarning bir-biriga bo'lgan munosabati yoki oila a'zosining sog'lig'i yaxshi emasligi, oilada farzandni boshqa farzandlar bilan teng ko'rilmaligining, qiziqishi va extiyoji bilan qiziqmasliklari o'quvchilarning ruhiy holati tushkinlikka olib keladi. Natijada o'quvchiga bilim berilsa ham fikr-u hayoli oilaviy muammolar bilan qamrab olingan bo'ladi. Bugun parta yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalashda bo'lg'usi ota-ona, avvalambor, sog'lom turmush tarzini tushuntirishimiz kerak. Farzand tarbiyasi ona qornidaligidan boshlanadi. Sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Ma'naviyatli ota-onadan ma'naviyatli farzand voyaga yetadi.

- Ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur va vatanparvarlik kabi xislatlarni singdirilishini har tomonlama rag'batlantirish. Ibn Sino bola tarbiyasiga oid o'z fikr mulohazalarini bildirar ekan, bola tarbiyasi unga ism qo'yishdan boshlashni lozim topadi hamda bolarga yaxshi, munosib ism tanlashni ota-onaning dastlabki olijanob vazifalaridan hisoblanadi. Barkamol insonni tarbiyalashda

uning g'oyalari aslo eskirmaydi. A.Navoiy fikricha bolani yoshligidan kamol toptirishda ota-onalarning roliga alohida e'tibor beradi. Xamza Xakimzoda Niyoziy ham oila va oilaviy tarbiya muammolariga ham alohida e'tibor berdi. Unda har tomonlama rivojlangan insonning kamol topishida oilaviy tarbiyaning roliga katta ahamiyat berilganini, bola tarbiyasida ota-ona ta'siriga e'tibor berilganini ko'ramiz. Xalq bola boshidan dep bejiz aytmagan. Axloqiy tarbiyaga oilada asos solinadi. Bu o'rinda ota-ona bosh na'muna hisoblanadi. Oilada bola to'g'ri tarbiyalansa, jamiyatning haqiqiy fuqorosi yetishadi. Ota-onalar o'z farzandlarini aqilli bilimli sog'lom odobli qilib o'stirishlari lozim. Chunki ular birinchi tarbiyachilardir. Ota-onalar bolalarini to'g'ri tarbiyalashlari uchun avvalo o'zlari tariyalangan bo'lishlari shart. Bolalarni moddiy jihatdan yetarli darajada taminlashlari kerak aks holda fojyaviy oqibatlarga olib kelishi mumkin. bola bola emas balo bo'lib yetishadi. Xamza ota -ona ro'liga ana shunday tazda qaraydi, bolaning yomon bo'lishiga ota -ona javobgar degan tezisni ilgari suradi. O'quvchilarni barkamol shaxs e'tib tarbiyalashda ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandiga til o'rgatish kitob o'qishga qiziqtirish aynan oiladan boshlandi. Farzandlarini barkamol shaxs e'tib tarbiyalashda har bir ota-ona o'z mas'uliyatini har bir daqiqasida his qilib yashashi lozim. Qachonki oilada sog'lom muhit mavjud bo'lgandagina, ularda har tomonlama sog'lom, barkamol inson shakillanadi.

### **XULOSALAR**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'quvchilarni barkamol shaxs etib tarbiyalashda ota-onalarning o'rni beqiyosdir. Ota-ona farzandini kamol topishi uchun uning tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Nafaqat o'quvchi-yoshlarni bazida ota-onalarni ham tarbiyalashga to'g'ri keladi. Bu orqali jamiyatni tarbiyalanadi. Rivojlangan mamlakatni bilimli, tarbiyalangan barkamol shaxslar quradi va boshqaradi. Shunday ekan yuqorida keltirilib o'tilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, O'quvchilarni barkamol shaxs e'tib tariyalashda ota-onalar bilan ishlash mehanizmlarini ishlab chiqish bu esa mavzuning dolzarbligini bildiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Kambarov Nodirjon Sattarovich. (2022). THE ROAD TO PERFECTION. World Bulletin of Social Sciences, 10, 57-62. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/971>
2. Kambarov, N. . (2023). PHILOSOPHY OF THE UZBEK NATIONAL MARTIAL ARTS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 916–921. Retrieved from <https://www.researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/2043>
3. X.Uzoqov, E.G‘oziev, A.Tojiev. «Oila etikasi va psixologiyasi». T., «O‘qituvchi» 1992 yil
4. Kambarov Nodirjon Sattarovich. (2023). Philosophy of the Uzbek National Martial Arts. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 57–61. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1238>